
Pilla – 2018. Beshariqning “kumush tola” xirmoni

Beshariq tumanida joriy yilda o‘zaro shartnoma asosida 386 ta fermer xo‘jaliklari hamda 2426 ta aholi xonadonlarida 2800 quti ipak qurti parvarishlandi.

Viloyatimizda birinchilardan bo‘lib chilgi hosilni yig‘ishtirishga kirishgan tuman pillakorlari 154 tonna sifatli sanoat xom ashyosi xirmoni bunyod etishni rejalashtirishgan. Buning uchun mavsum oldidan 85 nafar nazoratchilar, 25 nafar ipak qurti jonlantiruvchi mutaxassislar moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlandi.

“Begmat ota” fermer xo‘jaligi a‘zosi Mahfuza Hamdamova oila a‘zolari bilan 2 quti ipak qurti parvarishlab, “Beshariq agro pilla” MCHJ omboriga 110 kilogramm hosil topshirdi. Shu joyning o‘zida topshirgan pillasi uchun qariyb 1,5 million so‘m naqd pul oldi.

Ayni kunlarda mavsumning barcha ishtirokchilari bilan o‘z vaqtida hisob-kitob qilinib, mehnatlari munosib rag‘batlantirilyapti,-deydi tuman xotin-qizlar qo‘mitasi raisi, tuman hokimi o‘rinbosari Gulchehra Yuldasheva. – Bunday e‘tibor va rag‘bat soha rivojini ta‘minlash hamda manfaatdorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Botir MADIYOROV.

foto: O`zA

2018-05-15 12:10:57